

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASIDA FIKR VA SO‘Z ERKINLIGINING MUSTAHKAMLANISHI

Tifliyeva Gulhayo

Toshkent davlat yuridika universiteti
Magistratura va sirtqi ta’lim fakulteti
Ommaviy axborot vositalari huquqi yo‘nalishi talabasi
tifliyevag@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida fikr va so‘z erkinligi hamda ommaviy axborot vositalari erkinligi va faoliyatining asoslariga batafsil to‘xtalinadi. Shuningdek, Konstitutsiyaning eski va 2023-yildagi o‘zgartirishlar kiritilgandan keyingi holatidagi ushbu masalaga tegishli moddalar birma-bir ko‘rib chiqiladi va chuqur tahlil ostiga olinadi, hujjatlarda va amaldagi farqlar o‘rganiladi. Shuningdek, mavzuni kengroq yoritish maqsadida Yevropa mamlakatlari va O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining OAV erkinligiga bo‘lgan munosabati o‘rganib chiqiladi, farqlar va o‘xshash jihatlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, fikr va so‘z erkinligi, ommaviy axborot vositalari (OAV), senzura, Reporters Without Borders (RFS), milliy xavfsizlik, normativ-huquqiy hujjatlar.

УКРЕПЛЕНИЕ СВОБОДЫ МЫСЛИ И СЛОВА В КОНСТИТУЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН

Тифлиева Гульхайо

Ташкентский государственный юридический университет
Факультет магистратуры и заочного образования
Студент факультета права СМИ
tifliyevag@gmail.com

Аннотация: в статье подробно рассматриваются принципы свободы мысли и слова, а также свободы и деятельности средств массовой информации, закрепленные в Конституции Республики Узбекистан. Также

будут последовательно рассмотрены и подвергнуты глубокому анализу соответствующие статьи Конституции в старой редакции и поправках 2023 года, изучены различия в документах и на практике. Также, в целях более глубокого освещения темы, будет изучено отношение европейских стран и Конституции Республики Узбекистан к свободе СМИ, проанализированы различия и сходства.

Ключевые слова: Конституция Республики Узбекистан, свобода мысли и слова, средства массовой информации (СМИ), цензура, Репортеры без границ (РБГ), национальная безопасность, нормативно-правовые акты.

STRENGTHENING FREEDOM OF THOUGHT AND SPEECH IN THE CONSTITUTION OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN

Tifliyeva Gulhayo

Tashkent State University of Law
Faculty of Master's and Correspondence Studies
Student of Mass Media Law
tifliyevag@gmail.com

Abstract: *this article examines in detail the foundations of freedom of thought and speech, as well as the freedom and activity of the mass media, in the Constitution of the Republic of Uzbekistan. Also, articles related to this issue in the old version of the Constitution and after the introduction of amendments in 2023 will be reviewed one by one and subjected to in-depth analysis, and differences in documents and in practice will be studied. Also, in order to cover the topic more broadly, the attitude of European countries and the Constitution of the Republic of Uzbekistan to freedom of the media will be studied, differences and similarities will be analyzed.*

Keywords: *Constitution of the Republic of Uzbekistan, freedom of thought and speech, mass media, censorship, Reporters Without Borders (RFS), national security, regulatory legal acts.*

Kirish (Introduction)

So‘nggi yillarda nafaqat O‘zbekistonda, balki butun jahonda fikr va so‘z erkinligi masalasi dolzarb bo‘lib bormoqda. O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligida fikr va so‘z erkinligi, shuningdek, fikr va so‘z erkinligi bevosita ifodalanadigan ommaviy axborot vositalari (keyingi o‘rinlarda OAV) erkinligi va ularning faoliyatiga daxldor aniq huquqiy asoslar belgilab qo‘yilgan. Bu huquqlar fuqarolarning demokratik jamiyatimizda ochiq axborot ola olishi va uni tarqata olishi imkoniyatlarini kengaytiradi, bu esa ularga siyosiy, ijtimoiy va shuningdek, iqtisodiy jarayonlarda ishtirok eta olish imkoniyatini ham beradi. Bundan tashqari, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va boshqa huquqiy-normativ hujjatlar OAVning qonuniy chegaralari va axloqiy jihatlarini belgilab beradi va bu jihatlar milliy xavfsizlik, shaxsiy hayot daxlsizligi va jamoat tartibini buzmaslik kabi talablarni o‘z ichiga qamrab oladi. O‘zbekiston Respublikasi fikr va so‘z erkinligi hamda OAV erkinligi vositasida jamiyatda ochiqlik va oshkoralik tamoyillarini olg‘a surishga intilib kelmoqda. Shu nuqtai nazardan, OAV erkinligi butun jamiyatning o‘zgarishida, rivojlanishida katta ahamiyatga ega deyishimiz mumkin.

Endi esa so‘z erkinligi tarixiga qisqacha to‘xtaladigan bo‘lsak, dastlab, axborot olish va tarqatish uchun asosiy vosita bu — matbuot bo‘lgan. Ammo, sivilizatsiya natijasi o‘laroq, turli davrlarda matbuotdan keyin OAVning radio, televideniye kabi turlari, shuningdek, insoniyat dunyoqarashi va ongini tubdan o‘zgartirgan internet ham paydo bo‘ldi. XIX asr o‘rtalariga kelib esa ma’lum axborot agentliklari yuzaga kela boshladi. Keyingi asrlarga kelib qator jurnalistik

uyushmalar tuzildi: Xalqaro Jurnalistlar tashkiloti (1906), xalqaro Jurnalistlar Federatsiyasi (1952), Hamdo'stlik mamlakatlari, shuningdek, O'zbekiston jurnalistlari uyushmasi va boshqalar. Afrikada erkin matbuot rolini oshirish maqsadida noshirlar, muharrirlar, jurnalistlar tomonidan "Vindxuks" deklaratsiyasi ishlab chiqilgan. YuNeSKO tomonidan 1991 yil 3 may Jahon matbuoti erkinligi kuni deb e'lon qilingan va deklaratsiya qabul qilinib, shu kunni bayram sifatida nishonlash belgilangan.

Shuni ham ta'kidlab o'tish kerakki, O'zbekistonning mustaqillikka erishgan dastlabki yillarida OAV erkinligi cheklangan edi, ya'ni nazorat qattiq edi. Hukumat tomonidan oshkora senzura joriy qilinib, jurnalistlar hattoki, o'z faoliyatlari davomida mustaqil qaror qabul qila olmay, hukumatga bo'ysinishga va siyosatni yoqlashga majbur bo'lishgan. Hukumatga qaratilgan qarshi, ziddiyatli fikrlar qat'iyon taqiqlangan edi. Shu sabab bilan, xalqaro tashkilotlar tomonidan O'zbekistondagi OAV erkinligi past baholanib kelgan. Ammo 2016-yilda muhtaram prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev hokimiyat tepasiga kelgach, bu sohada bir qancha ijobiy o'zgarishlar kuzatildi. prezident islohatlari doirasida so'z va axborot erkinligini oshirish, jurnalistlarni qo'llab-quvvatlash va ularga o'z faoliyati doirasidagi erkinlikni ta'minlash uchun sharoitlar yaratib berish borasida chora-tadbirlar ishlab chiqilmoqda. Xususan, prezidentimizning yurtimizning 32 yilligi munosabati bilan so'zlagan nutqida ham ta'kidlab o'tganidek, "Bugun rivojlangan fuqarolik jamiyatini shakllantirish haqida gap borar ekan, buni so'z va matbuot erkinligisiz tasavvur qilib bo'lmaydi. Butun dunyoda jurnalistlar o'zlari va jamiyatni o'ylantirayotgan, xavotirga solayotgan mavzular haqida gapirish va yozish huquqi uchun, haqiqat uchun kurashganlar va bundan keyin ham kurashadilar. Ammo, ishonch bilan ayta olamanki, men erkin fikrli jurnalistlar

tarafida bo‘lganman va doimo shu pozitsiyada bo‘laman. Ayni vaqtda axborot makonida haqqoniylik va xolislik bosh mezon bo‘lishi kerak”. Shunga qaramay, O‘zbekiston Respublikasida OAV erkinligiga to‘laqonli erishilmagan deyishimiz mumkin. Xususan, “Chegara bilmas muxbirlar” (RFS—Reporters Without Borders) xalqaro nohukumat tashkiloti tomonidan tuziladigan So‘z erkinligi indeksining 2022-yilgi reytingida O‘zbekiston o‘z ko‘rsatkichlarini birdan 24 pozitsiyaga yaxshilab, 133-o‘ringa ko‘tarilgani xabar qilingandi. Biroq, 2023-yil holatiga ko‘ra esa 137-o‘ringa tushib qolgan va so‘nggi 2024-yil holatiga ko‘ra mamlakatimiz 180 ta davlat ichida 148-o‘ringa keskin pastlab ketganini ko‘rishimiz mumkin. Holat esa “qizil”, ya’ni juda jiddiy holatda turibdi.

Ushbu maqola O‘zbekistondagi fikr va so‘z erkinligining eski va yangi tahrirdagi Konstitutsiyada qanday aks etganligi, farqlar va o‘xshash jihatlar hamda uning amaldagi holatini tahlil qiladi. Shuningdek, bu boradagi muammolarga yechimlar va ularni yengillatish maqsadida tavsiyalar beriladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar (Methods)

Fikr va so‘z erkinligi mavzusiga daxldor mavjud huquqiy-normativ hujjatlar hamda ilmiy adabiyotlar tahlili ushbu masalaning qanchalik murakkabligini isbotlaydi deyishimiz mumkin. Ushbu maqola davomida asosiy qonunchilik hujjati sifatida O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining eski va yangi tahriridan(2023) tegishli moddalar tahlil ostiga olindi, bundan tashqari, nazariy asoslar uchun xalqaro miqyosda Aristotel, Jon Lokk, Monteske, J. S. Mill kabi faylasuflar hamda Tomas Emerson va Ronald Dvorkin kabi huquqshunolar fikrlaridan foydalanildi. Shuningdek, BMTning Fuqarolik va siyosiy huquqlar to‘g‘risidagi xalqaro pakti (1966) hamda Yevropa Inson huquqlari konvensiyasining ham ushbu maqolani keng tahlil qilishdagi ahamiyati katta.

Umumiy holda aytadigan bo'lsak, tahlil uchun ikkilamchi manbalar — ilmiy maqolalar, ekspert fikrlari, rasmiy bayonotlar va ba'zi o'rinlarda ma'lum statistika ma'lumotlaridan maqsadli foydalanildi. Ushbu tadqiqotda bir nechta tahlil usullaridan foydalanildi. Birinchisi, nomativ-huquqiy tahlil usuli bo'lib, bu usul O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi tegishli moddalarini chuqur tahlil qilganlikda ko'rinadi. Ikkinchisi, tarixiy yondashuv bo'lib, bunda fikr va so'z erkinligining tarixiy evolyutsiyasiga ham to'xtalib o'tilgan. Uchinchisi, qiyosiy metod va ushbu metod yordamida O'zbekiston va chet mamlakatlarida mavzuning dolzarbligi darajasi va ular o'rtasidagi farqlar o'rganib chiqildi.

Natijalar va muhokama (Results and Discussion)

Ma'lumki, bosh qomus — Konstitutsiyada fikr va so'z erkinligi, OAV erkinligi hamda ularning faoliyatiga daxldor bir nechta moddalar mavjud. Avvalo, OAV uchun ajratilgan bobga to'xtalish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu bob XV bob bo'lib, "Ommaviy axborot vositalari" deb nom olgan va 81 hamda 82-moddalarni o'z ichiga qamrab oladi. Tadqiqot ishini kengroq yoritish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining eski tahrirlanmagan va yangi 2023-yilgi o'zgartirishlar kiritilgandan keyingi holatiga ko'ra OAV erkinligi masalasini ko'rib chiqiladi. Dastlab, 1992-yil 8-dekabrda tasdiqlangan va 6 bob, 26 bo'lim va 128 moddadan iborat bo'lgan bosh qomusimiz tahlilidan boshlasak, 67-moddada yuqoridagi masala bo'yicha fikrlar bor edi: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ishlaydi. Ular axborotning to'g'riligi uchun belgilangan tartibda javobgardirlar. Senzuraga yo'l qo'yilmaydi". Bu moddada davlat va uning organlarining OAV faoliyatiga bevosita aralashuvi taqiqlangan edi. OAVga senzura o'rnatilishi mumkin emasligi va ularning faoliyatiga nisbatan har qanday noqonuniy aralashuv demokratik tamoyillar bilan ziddiyatda ekanligi

ta'kidlangandi. Ushbu modda OAVga jamiyatdagi dolzarb muammolarni erkin muhokama qilish imkonini bergan, axborot tarqatish jarayonining xolisligini ta'minlashda muhim o'rin tutgan. Bundan tashqari, eski O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 29-moddasi fikr va so'z erkinligi, umuman, OAV erkinligining poydevorini tashkil etgan moddalardan yana biri desak ham bo'ladi. Bu modda O'zbekiston fuqarolari va boshqa shaxslarning fikr bildirish, axborot izlash, olish va tarqatish huquqlarini kafolatlaydi. Konstitutsiyaning ushbu moddasida shunday deyiladi: "Har kim fikrlash, so'z va e'tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim o'zi istagan axborotni izlash, olish va uni tarqatish huquqiga ega, amaldagi konstitutsiyaviy tuzumga qarshi qaratilgan axborot va qonun bilan belgilangan boshqa cheklashlar bundan mustasnodir. Fikr yuritish va uni ifodalash erkinligi faqat davlat siri va boshqa sirlarga taalluqli bo'lgan taqdirdagina qonun bilan cheklanishi mumkin".

Endi esa 2023-yildagi o'zgartirishlardan keyingi hajmi 7 bob, 27 bo'lim va 155 moddani tashkil etgan Konstitutsiyaning OAV faoliyati va so'z erkinligini yanada mustahkamlovchi nuqtalarini tahlil qilamiz. Ya'ni yuqorida aytib o'tilganidek, XV bob OAV faoliyati va uning erkinligi uchun ajratilib, ushbu bob "Ommaviy axborot vositalari" deb nomlandi, shuningdek, ushbu bob o'z tarkibiga ikkita moddani jamlagan:

81-modda: "Ommaviy axborot vositalari erkindir va qonunga muvofiq ish olib boradilar. Davlat ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligini, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari amalga oshirilishini kafolatlaydi. OAV o'zi taqdim etadigan axborotning ishonchliligi uchun javobgardir." Ushbu moddada Davlat axborotni izlash,

tarqatish va boshqa yana bir nechta huquqlarni kafolatlashi va axborot ishonchliligiga javobgarlik haqida ham fikr yuritilgan.

82-modda: “Senzuraga yo‘l qo‘yilmaydi. OAVning faoliyatiga to‘sqinlik qilish yoki aralashish qonunga muvofiq javobgarlikka sabab bo‘ladi”. Senzuraga qat’iy yo‘l qo‘yilmasligi va OAV faoliyatiga aralashuv holatlarida javobgarlikka tortilish haqidagi fikrlarni yuqorida 82-moddada ko‘rishimiz mumkin. Bulardan tashqari, hozirgi Konstitutsiyadagi yana bir nechta moddalarni keltirib o‘tmoqchiman va ular ham uzviy ravishda aynan mana shu masala — OAV va so‘z erkinligi masalasiga daxldor.

Bu bobdan tashqari boshqa boblarda keladigan yana bir nechta moddalarni ham ta’kidlab o‘tish kerakki, ularning ham OAV erkinligi va faoliyatidagi o‘rni juda katta.

33-modda: "Har kim fikrlash, so‘z va e’tiqod erkinligi huquqiga ega. Har kim istalgan axborotni izlash, olish va tarqatish huquqiga ega. Davlat Internet jahon axborot tarmog‘idan foydalanishni ta’minlash uchun shart-sharoitlar yaratadi. Axborotni izlash, olish va tarqatishga bo‘lgan huquqni cheklashga faqat qonunga muvofiq hamda faqat konstitutsiyaviy tuzumni, aholining sog‘lig‘ini, ijtimoiy axloqni, boshqa shaxslarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamoat xavfsizligini hamda jamoat tartibini ta’minlash, shuningdek davlat sirlari yoki qonun bilan qo‘riqlanadigan boshqa sir oshkor etilishining oldini olish maqsadida zarur bo‘lgan doirada yo‘l qo‘yiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining ushbu moddasi eski, tahrirlanmagan holatdagi Konstitutsiyaning 29-moddasiga deyarli to‘g‘ri keladi. Ya’ni e’tiqod, so‘z erkinligi, axborotni izlash, olish va tarqatishga ruxsat borligi belgilab qo‘yilgan, farqi esa muvofiqlik va ushbu moddaning amal qilish ko‘lami

aniq belgilab qo'yilganligida bo'lib, yangi tahrirdagiga ko'ra ushbu haq-huquqlar mustahkamroq qilib belgilanishiga erishilgan.

69-modda: "Fuqarolik jamiyati institutlari, shu jumladan jamoat birlashmalari va boshqa nodavlat notijorat tashkilotlari, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlari, ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etadi. Fuqarolik jamiyati institutlarining faoliyati qonunga muvofiq amalga oshiriladi." Bu moddada esa ommaviy axborot vositalari fuqarolik jamiyatining asosini tashkil etishi e'tirof etilgan. Bundan kelib chiqadiki, O'zbekistonda OAV erkinligi va umuman, uning faoliyati yuqorii darajaga qo'yiladi.

Endi esa eski va yangi tahrirdagi Konstitutsiyasining OAV erkinligi masalasidagi farqi va o'xshash jihatlarini tahlil ostiga oladigan bo'lsak, ko'rinadiki, oxirgi yillarda OAV erkinligi anchayin mustahkamlangan. Yuqorida aytib o'tilganidek, oldingi holatda OAVga tegishli bo'lgan holat va masalalarga chuqur yondashilmagan bo'lib, Konstitutsiyada hozirgidek keng tarzda o'z o'rniga ega emas edi.

Shunday ekan, O'zbekistonda OAV erkinligi va uning faoliyati masalasida qator, ijobiy tomonga siljishlarni ko'rishimiz mumkin. Ammo shunga qaramay, hali davlatimizdagi holat unchalik ham ijobiy emas, ba'zi holatlarda OAV erkinligiga qaratilgan tajovuz, to'sqinliklar va cheklovlarning guvohi bo'lishda davom etyapmiz.

Mamlakatimizning holati xalqaro miqyosda qanday ekanligini aniqlash uchun qiyosiy metoddan foydalanib, rivojlanayotgan O'zbekiston hamda rivojlangan Yevropa mamlakatlaridan Fransiya, Germaniya va Buyuk Britaniyalar tahlil ostiga olinadi. Shuningdek, ushbu qiyosiy metoddan foydalanishim davomida "Reporters Without Borders" reytingini asosiy manba sifatida oldim.

Reporters Without Borders" (RSF – Reporters Sans Frontières) – matbuot erkinligini himoya qilishga qaratilgan xalqaro nohukumat tashkilot hisoblanadi va dunyo bo'ylab har yili so'z erkinligi, jurnalistlar va OAV bilan bog'liq masalalarni kuzatib, indekslarni e'lon qiladi. Quyida ko'rinib turgan fotosuratdagi index 2023-yil holatiga ko'ra belgilangan reytingdir. Dastlab, tadqiqotning avvalida O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida OAV va so'z erkinligi hamda uning faoliyati doirasida atroflicha tahlillar amalga oshirilgan edi. Endi esa Yevropa mamlakatlarining bu boradagi holatiga to'xtalinadi.

Fransiya – OAV erkinligi va uning faoliyati konstitutsiyaviy jihatdan kafolatlangan davlatlardan biridir. 1881-yilda qabul qilingan "Matbuot erkinligi to'g'risida"gi qonunda aynan mana shu huquqlar ta'minlangan. 1881-yildan keyin ushbu qonunga ko'plab o'zgartirishlar kiritilgan, ammo OAV erkinligi masalasida katta o'zgarishlar kuzatilmagan bo'lib, mamlakatda hozirgi kunga qadar OAV erkinligi qat'iy mustahkamlab qo'yilganligining guvohi bo'lishimiz mumkin. Biroq, taqozo qilingan vaziyatlardagina (xavfsizlikka tahdid solinsa, terrorchilikka qarshi kurashda va hk) bu erkinlikka ma'lum darajada vaqtinchalik cheklovlar qo'yilgan. Shunga qaramay, reyting orqali Fransiyadagi OAV erkinligi qoniqarli holatda ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Germaniyada esa ushbu huquq 1949-yilgi Grundgesetz (Asosiy qonun) bilan kafolatlangan. Ya'ni bu konstitutsiyaviy kafolat sanaladi. Germaniyaning aynan ushbu qonuni 5-moddasiga binoan so'z va matbuot erkinligi qat'iy belgilangan. To'g'ri, 2023-2024 yillarda OAV erkinligi borasida ba'zi siyosiy hodisalar yuz bergan paytda jurnalistlar zo'ravonlikka duch kelganiga qaramay, bu huquqiy himoya o'z kuchini yo'qotganicha yo'q va reytingda ham qoniqarli holatni (satisfactory situation) saqlagan.

Buyuk Britaniyada holat boshqacharoq, ya'ni Buyuk Britaniya va Shimoliy Irlandiya Birlashgan Qirolligi Konstitutsiyasi 300ga yaqin qonuniy hujjatlardan iborat bo'lib, bu degani, davlatda yagona Konstitutsiya hujjati mavjud emas. Shu sababli, OAV erkinligi masalasida aniq konstitutsiyaviy hujjatlar mavjud emas. Lekin Britaniyaning demokratik an'alariga ko'ra, so'z erkinligi va axborot erkinligi asosiy tamoyillardandir. Bir so'z bilan aytganda, Britaniya uchun OAV erkinligi yozilmagan Konstitutsiya asosida amalga oshiriladi. Albatta bunga daxldor qonuniy hujjatlar mavjud bo'lib, 1998-yilda qabul qilingan "Inson huquqlari to'g'risidagi" qonun asosiy hujjatdir. Ushbu qonun Yevropa inson huquqlari konvensiyasining 10-moddasini o'z ichiga oladi va unda OAV erkinligi kafolatlangan. Shunday bo'lsa-da Germaniya va Fransiyadagi kabi ba'zi holatlarda (davlat xavfsizligi, odob-axloqni saqlash, sud tizimini hurmat qilish,..) ushbu erkinlik cheklanadi. Shu o'rinda Buyuk Britaniyadagi hozirgi OAV bilan bog'liq muammolarni ham keltirib o'tish ham mumkin. Britaniyada OAV erkinligi "sariq"-qoniqarli ahvolda bo'lsa-da, ushbu masala dolzarbligicha qolmoqda. Buning asosiy, o'zak sabablaridan biri so'nggi yillardagi internet va ijtimoiy tarmoqlarning ahamiyati kattalashgani bilan ko'rinadi. Hukumat va sud tizimi texnologik vositalar va raqamli platformalar orqali tarqatilayotgan axborotlarni nazorat qilishga urinyapti. Masalan, "fake" xabarlar va zo'ravonlikni targ'ib qiluvchi kontentlarni cheklash haligacha muhim masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Umuman olganda, ushbu 3ta rivojlangan Yevropa mamlakatlarida ham O'zbekistondan farqli o'laroq vaziyat qoniqarli bo'lishiga qaramasdan, haligacha ushbu davlatlarbu masalada qator muammolarga duch kelishmoqda.

Xulosa qilib aytganda, ushbu tadqiqot orqali fikr va so'z erkinligining O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida qanchalik mustahkamlab qo'yilganligi

to'la o'rganib chiqildi va qiyosiy metod yordamida boshqa rivojlangan bir nechta mamlakatlardagi ushbu holat yuzasidan solishtiruvlar ham olib borildi. Ko'rinib turibdiki, O'zbekistonda qonuniy jihatdan rivojlangan mamlakatlardagi kabi fikr va so'z erkinligi huquqi qat'iy belgilab qo'yilgan. Shunga qaramasdan, haligacha OAV erkinligi borasida mamlakatimizning og'ir vaziyatda turganligining asosiy sababi amaliy tomonlama bu qonun hujjatlariga doim ham amal qilinmasligi deb hisoblash mumkin. Shuning uchun xulosa qismida bu masalaga doir bir nechta kelajak uchun o'rganib chiqilishi kerak bo'lgan tavsiyalarni aytib o'tish maqsadga muvofiq sanaladi:

- 1. Qonuniy asoslarni kuchaytirish:** yuqorida aytganimdek, Ommaviy axborot vositalari erkinligini yanada mustahkamlash uchun ushbu maslanning amaliy jihatini inobatga olib, amaliyotda to'g'ri tatbiq etish kerak. OAVga erkinlik beruvchi normativ-huquqiy hujjatlarni qat'iylashtirish va senzurani imkon boricha minimallashtirish kerak.
- 2. Axborot xavfsizligi va xolislik:** Axborot tarqatishda va uni qabul qilishda oshkoralik, haqqoniylik va xolislik sifatlarini ta'minlash bo'yicha aniq mexanizmlarni ishlab chiqish kerak. Shuningdek, jurnalistlar va boshqa axborot tarqatuvchilarga (masalan, bloggerlar) keng huquqiy himoya berish lozim.
- 3. Fuqarolar ishtirokini oshirish:** Ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarning siyosiy va ijtimoiy hayotdagi ishtirokiga ma'lum rag'batlar joriy etilishi kerak. Bu masala axborot qabul qilish va tarqatishdagi huquqlarning ko'lamini oshirishni talab etadi.
- 4. Xalqaro standartlarga moslashish:** O'zbekistonda OAV erkinligiga doir xalqaro huquqiy standartlarga mos keladigan islohotlarni amalga oshirish darkor .

Bu ayniqsa, jurnalistlar faoliyatida erkinlikni oshiradi va axborotlarning erkin tarqalishida ko‘makchi bo‘ladi.

Umuman olganda, OAV erkinligi nafaqat O‘zbekiston, balki har bir davlatning har qanday sohada rivojlanishi uchun kalit sifatida xizmat qiluvchi manba sanaladi. Bunday rivojlanish esa aytib o‘tilganidek, ham huquqiy asoslarda ham amaliyotda rivojlanishlarni talab etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. -T.: Adolat, 2023.
<https://lex.uz/docs/-6445145>.
2. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi // <https://constitution.uz>.
3. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Milliy markazi veb sayti
//<https://www.insonhuquqlari.uz>.
4. “So‘z erkinligi tarixiga nazar” <https://kun.uz/news/2016/05/03>.
5. Prezident: “Erkin fikrli jurnalistlar tarafida bo‘lganman va doimo shu pozitsiyada bo‘laman...”; <https://xabar.uz>.
6. O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, -T.: davlat ilmiy nashriyoti, 2000-2005.
7. Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasining Milliy strategiyasi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 22.06.2020 yildagi PF-6012-son.
8. Reporters Without Borders (RSF). World Press Freedom Index 2024. URL:
<https://rsf.org/en/index>.